

**Tarih fakulteti “Milliy g’oya, manaviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrası IV “B” guruh talabasi
Bahromov Barkamolning “Milliy mafkura tushunchasi va uning mohiyati” mavzusidagi kurs ishi
elektron axborotga ta’lim resursiga**

TAQRIZ

Xalqimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, boy tarixiy merosimizga, ma’naviy qadriyat va an’analarimizga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Bu davrda, davlatimiz rahbari Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobida ta’riflanganidek, insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch –ma’naviyatga eng ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida ulkan e’tibor qaratildi.

Istiqlol yillarida ko‘hna tariximiz, boy madaniy-ma’naviy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, urf-odat va an’analarimiz qayta tiklandi, aziz-avliyolarimizning qarovsizlikdan nurab, deyarli yo‘q bo‘lib ketish arafasiga kelib qolgan maqbaralari, masjid va madrasalar tubdan ta’mirlandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag‘rikenglik, hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg‘usi yuragimizning tub-tubidan o‘rin oldi. Ushbu holatlarni tahliliga bag‘ishlangan “Sharq mutafakkirlari merosining milliy mafkura rivijida tutgan o‘rni” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Talaba azaldan yurt tinchligi va obodligi, yangi avlodning ajdodlar ruhiga sadoqati, ulardan qolgan merosni avaylash va boyitishga safarbar qilib tarbiyalash yo‘lida hormay-tolmay mehnat qilib, yashab kelayotgan xalqimizning buyuk farzandlari haqida asrlar osha jahon taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shib kelganligini ta’kidlaydi. Ularning ilm-fan va ma’naviyat sohalarida erishgan yuksak natijalari SHarq G‘arbni o‘zaro bog‘lagan, buyuk sivilizasiya o‘choqlarini tutashtirganligini aytib otadi.

Ayniqsa, o‘rta asrlarda yurtimiz zaminidan o‘nlab buyuk olimu shoirlar, buyuk mutafakkirlar etishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi tabiat va jamiyatshunoslik fanlarining barcha sohalariga oid asarlari faqat O‘rta Osiyo xalqlarining emas, balki butun dunyo xalqlarining ma’naviy mulkidir. Ushbu bitiruv malakaviy ishida talaba yuqoridagi masalalarni o‘rganish natijasida tegishli ilmiy xulosalarni ishlab chiqqan. Ushbu kurs ishini elektron axborot ta’lim resursi Ziyonet tarmog‘iga joylashtirish uchun tavsiya etish mumkin.

Ilmiy rahbar:

f.f.n. Z.Boytemirova



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

5111600-MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ
TA’LIMI YO‘NALISHI
IV “B” GURUH TALABASI

Baxromov Barkamolning

“Milliy mafkura tushunchasi va uning mohiyati”

mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

f.f.n., Z.Boytemirova

Qo‘qon-2016

Mavzu: Milliy mafkura tushunchasi va uning mohiyati

Kirish

Asosiy qism:

1. Milliy mafkura mohiyati, manbalari va tarixiy shakllari....
2. Milliy mafkura va uning ijtimoiy ong tizimidagi o‘rni ...
3. Milliy mafkura shakllanishining asosiy tamoyillari.....
4. Milliy mafkurani mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Har qanday jamiyat va millat o'z maqsad hamda manfaatlarini ifoda qila oladigan umummilliy g'oya, mafkuraga ega bo'lishi lozim, Bu, ayniqsa, endigina mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqib olgan mamlakatlar uchun yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. CHunki, har bir mustaqil davlatning o'z milliy g'oyasi va mafkurasini tarkib topgandagina, davlatning oldiga qo'ygan maqsadi va dasturlari amalga oshishiga zamin yaratiladi. Zotan, mafkurasiz, jiddiy asosga ega g'oyalarsiz yashaydigan jamiyatning istiqboli qorong'idir. "Biz shunday davrda yashamoqdamizki, uni hech bir mubolag'asiz insoniyat taqdirini belgilab beradigan kurashlar jarayoni, deya atash mumkin. Ushbu kurashda foydalanilayotgan vositalar tom ma'nodagi qurollar emas, balki g'oyalardir"¹. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning alohida ta'kidlashicha: "O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur kila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa, har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar".

Ma'lumki, yangi, demokratik jamiyat o'z-o'zidan qaror topmaydi yoki o'z-o'zidan yangilanmaydi. Uni xalq quradi, yaratadi, shakllantiradi. SHunday ekan, bugungi kun aynan O'zbekiston xalqining orzu va intilishlarini, maslak va maksadlarini ifoda etadigan, unga xizmat qiladigan milliy mafkurasini yaratish va hayotga tatbiq etish, uning mohiyati, tizimi, asosiy maqsad va yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillarini aniklab olishni taqozo etadi. Biz murakkab bir davrda yashayotganligimiz, o'z-o'zidan, ravshan. Nafaqat iqtisodiy hayot tarzimizda, balki, ma'naviy olamimiz, ongu tafakkurimizda ham yangilanish, o'zgarish jarayonlari kechmokda. Albatta, bu jarayon osonlik bilan ro'y berayotgani yo'q. Bu yo'lda eskicha qarashlar, odamlarimiz ongida eski zamondan saqlanib kelayotgan mutelik asoratlarini, turli ziddiyatlar, ba'zan, ochikdan-ochiq, dushmanlik kayfiyatlarini ham engib, olg'a borayotganimizni hech kim inkor eta olmaydi. Eng muhimi bizga bu yo'lda ajdodlarimiz ruhi va merosi mash'ala bo'la oladigan quvvatga ega. SHu o'rinda prezidentimizning "Bizning davrimizgacha etib kelgan bu boy merosdan butun bashariyat ravnaqi yo'lida oqilona va samarali foydalanish – bu siz bilan bizning vazifamiz, siz bilan bizning burchimizdir. Bu borada fidoyi olimlarning roli alohida diqqat-e'tiborga munosib bo'lib, aynan ularning mehnati tufayli biz o'tmishning bebaho ilmiy merosini qaytadan kashf etmoqdamiz"² degan fikrlari o'rnlidir.

Milliy mustaqillik, ozodlik yo'li, erkin hayot qurish, aslida, mana shunday mashaqqatli bo'ladi. Ko'hna tarixdan ham, yaqin o'tmishimizdan ham bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Zotan, O'zbekistonning, mana shu, o'zi tanlagan mustaqil taraqqiyot yo'lida aniq marralarni ko'zlab yashashida, xalqning pirovard maqsadi bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarida, mudom, ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos, ya'ni milliy g'oya, milliy mafkura, bo'lishi shart. SHu bois, tanlangan muammoning dolzarbligi quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

Birinchi o'z kelajagini ko'rmoqchi va qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat yoki jamiyat, albatta, o'z milliy g'oyaga, o'z milliy mafkuraga tayanishi kerak. Bu esa, milliy

¹ Л. Эрдоналиев. Терроризмнинг ғайринсоний киефаси. "Кўкон садоси" рўзномаси, 2015 йил 26 март.

² Каримов И.А. "Ўрта асрлар Шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожига роли ва аҳамияти" мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиш маросимидаги нутқ. Халқ сўзи, 2014 йил, 16 май

g'oya va milliy mafkura-ni shakllanish jarayonini ilmiy o'rganishga qaratilgan, tadqiqotlar olib borishni muhim hayotiy talabga aylantiradi. Ikkinchidan, ayni paytda, begona mafkura va g'oyalarning Uzbekistan va qo'shni davlatlarga xuruji, eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo'lgan bo'shliqni yangi milliy g'oya, milliy istiqlol mafkurasi bilan to'ldirish zarurati tug'ildi. Xususan "diniy qadriyatlarining, ezgulikning, insoniyatning dushmani bo'lgan yot g'oyalarning asl mohiyatini ochib berish, buzg'unchi oqimlarni jilovlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, hayotning har qanday balo-qazolaridan xalqimizni asrash³" ham milliy mafkuraning vazifalaridandir. Uchinchidan, hozirgi murakkab sharoitda, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongida mafkuraviy immunitet hosil qilish muhim ahamiyatga egadir, "Bu ishni bamisoli yosh niholga mevali daraxt kurtagini payvand qiladigan usta bog'bondek noziklik va mehr, oqilona yo'l bilan amalga oshirish lozim". To'rtinchidan, sobiq Ittifoqqa xos bo'lgan ba'zi mafkuraviy tamoyillarning sakdangan asoratlarini tugatish, mamlakatimiz Prezidenti e'tirof etayotganidek, g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmoq - davr talabi bo'lib qoldi.

Beshinchidan, barcha harakatlar, g'oyalar, mafkuralar negizida insonni mukammallashtirishga urinish yotadi. Milliy mafkuraning asosiy tamoyillaridan birining ham ayni komil insonni tarbiyalash masalasiga bag'ishlanganligi va shu bois, uning inson qadrini oshirishga xizmat qiladigan tomonlarini tahlil qilish. Oltinchidan bugungi axborotlashib borayotgan jamiyatda yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash juda muhim vazifadir. Chunki, "ayrim yoshlarimizning ijtimoiy tarmoq sahifalarida turli maqsadlar bilan kechayu-kunduz kezishlari, yoshi kichikroqlari esa na o'ziga, na o'zgaga foydasi tegadigan, tarbiyaga salbiy ta'sir etuvchi xar xil o'yinlar bilan vaqt o'tkazishi haqida bugun ko'p gapirilmoqda. Bugun bu jarayonda yuzaga keladigan bo'shliqni faqat foydali ma'lumotlar, xayrli mashg'ulotlar bilan to'ldirishiiz kerak. Demak, turli xorijiy ijtimoiy saytlar o'rniga o'zimizning millatimiz mentalitetiga xos, dinimizga mos milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni mujassam etgan va albatta, uni keng targ'ib eta oladigan, xalq e'tiborini jalb etuvchi saytlarni ko'paytirsak, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu ish kelajakning emas, bugunni eng muhim ishidir"⁴.

³ Айдарбек Тулепов. ИШИД фитнаси. Т.: Моварауннахр, 2015. 3 - бет.

⁴ Айдарбек Тулепов. Интернетга ин курган "ўргимчаклар". Т.: Моварауннахр, 2014. - 80 б.

1. Mafkura mohiyati, manbalari va tarixiy shakllari.

Ma'lumki, kishilik jamiyatida ijtimoiy tafakkur rivoji natijasi o'laroq, jamiyatning etakchi mafkurasiga hamisha ehtiyoj seziladi. SHu urinda, eng avvalo, «Mafkura nima?» - degan savolga javob izlash lozim bulgani uchun mafkura so'ziga alohida to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Mafkura so'zi arabcha bo'lib, "fikrlar yig'indisi", mahsuloti, degan ma'noni bildiradi. Uni Evropada "ideologiya" ham deyishadi. Ideologiya so'zi asli yunoncha bo'lib, "idea" - tushuncha, tasavvur, "logos" ta'limot, degan ma'nolar birlashmasidan iborat. Demak, bu g'oyalar haqidagi ta'limotdir. Qisqa qilib aytganda, mafkura yoki ideologiya ijtimoiy ongning turli shakllarida, masalan, falsafada, siyosiy qarashlarda, axloqda, san'atda, gimnda - ya'ni Davlat madhiyasida o'z ifodasini topadigan g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar tizimi yig'indisidir, G'oya so'zi ham arabcha bo'lib, harakat yo'nalishidagi fikr, o'y, maqsad, dunyoqarashni ifodalaydi, Bu atama Ovrupoda qo'llaniladigan "idea" tushunchasiga to'g'ri keladi va bosh fikr degan mazmunni ifoda etadi. Har bir jamiyatning o'z fikrlari, g'oyalari va tushunchalari tizimi bo'ladi. U o'z ijtimoiy borligidan o'sib chiqib, ijtimoiy ongning eng muhim qismini tashkil qiladi va o'z navbatida ijtimoiy borliqqa faol ta'sir ko'rsatadi. Mafkura o'z tasnifi nuqtai nazaridan tarakqiyparvar, ilg'or bo'lsa, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aslida, milliy va insoniy tuyg'ular bilan tarix sahifalarida o'chmas nomlari qolgan qadim Turon xalqdari moddiy va ma'naviy quvvatlar uyg'unligi yordamida, bir necha asrlardan beri, jahon hamjamiyati mafkurasiga bog'langan holda, o'z g'oya va mafkuralarini topgan edilar. Turkiyalik olim, professor Usmon Turonning yozishicha, "... tarixlarining dastlabki davrlarida turklarning siyosiy tashkiloti va qo'shin qobiliyati boshqa qavmlarnikidan ustun edi. CHunki turklar birinchilardan bo'lib, otdan, muhoroaba vositasi o'laroq, foydalandilar, millat tuyg'usini tuydilar, insoniy sifatlar bilan tanildilar hamda jahonga hokimlik qilish da'vosida bo'ldilar. Moddiy - ma'naviy quvvatlar asosida ulkan imperiya qurgan turklar o'z hokimiyatlariga qo'shilgan yoki o'zlari bilan yaqin munosabatda bo'lgan qavmlarga siyosiy tashkilotlari hamda qo'shin texnikasi sirini o'rgatgan. Uzoq va YAqin SHarq o'lkalari Osiyo va Ovrupo qit'alari orasida din, madaniyat, alifbo hamda tijorat va sanoatning o'sib rivojlanishiga imkon yaratib, madaniyat tarixiga ulkan ulush qo'shgan".

Milliy mafkura xususida gapirar ekanmiz, milliy tushunchalar, milliy ong va milliy tafakkurni chetlab o'tish mumkin emas. CHunki har qanday mafkura milliy mansublik asosida shakllangan milliy tafakkur va milliy ong mahsulidir. Zotan, "... millat na irkiy, na kavmiy, na jug'rofiy, na siyosiy va na bir irodaviy uyushma emasdir. Millat til, din, axloq va badiiy jihatlarga ko'ra mushtarak bo'lgan, ya'ni muayyan tarbiyani olgan odamlardan tarkib topgan bir birlikdir"- deydi taniqli turk olimi Ziyo Ko'kalp. Darhaqiqat, ma'naviy-ruhiy va axloqiy birlik millat suvrati bo'lgani kabi, uning butun qiyofasini, xatti-harakatini, tasavvurlar va tafakkur miqyosini ham belgilaydi, Ana shu tafakkur va tasavvurlar birligi, mushtarakligi asosida milliy mafkura tarkib topadi. Mafkura mamlakat xalqi tarixiga, uning buguni va kelajagiga birdek daxldordir. SHu boisdan ham, har bir davlatning asl mafkurasi shu mamlakatga tegishli millatning tarixiyu mayl-intilishlaridan, xalqaro munosabatlariyu hayotiy tajribalaridan kelib chiqadi. O'ylaymizki, bugun yaratilayotgan mafkuraning tag zamini ming yilliklar qa'ridagi uzoq o'tmishimiz, Usmon Turon tilga olganday, "millat tuyg'usini tuygan" ajdodlarimizning milliy-madaniy hayot tarziga borib taqaladi.

Ma'fura inson tafakkurining mazmunini, uning miqyosini va madaniyatini belgilaydigan ijtimoiy hodisadir. Uning ta'sirida yakka shaxslarning dunyoqarashi asosida, jamiyatning o'umiy mafkurasini vujudga keladi. Ma'fura jamiyat a'zolarining, ularning mushtarak maqsadlari, orzu va intilishlarini birlashtirib turgan umumiy g'oyalar tizimi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan bir qatorda, u kishilarning olam va uning o'zgarishi, taraqqiyot istiqboli, odamlarning turmush tarzi va aqidalari xalqdagi ilmiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy, estetik, diniy va boshqa qarashlar va tasavvurlar majmuidir. Demak, u odamlarning mushtarak manfaatlarini belgilaydigan va umumiy qarashlarini birlashtiradigan g'oyaviy yaxlitlikdir. Ma'furaning ijtimoiy vazifalari bevosita kishilik jamiyati taraqqiyotining bosqichlari bilan belgilanadi. U turli davrlarda turli ijtimoiy-ma'naviy jarayonlar ta'sirida dunyoga keldi va uz davri odamlari tafakkurini boyitishga, ularning yangi g'oyalar bilan shakllanishiga zamin yaratdi. Turli asrlarda, uzoq tariximizning turli bosqichlarida taraqqiyotning yangidan-yangi shakllarining paydo bo'lishi, bevosita jamiyatni boshqarish va kishilar ongi qamda tafakkurini bir nuqtada jamlab turish - ma'furaning muhim ijtimoiy vazifasi bo'lib keldi. Bu hol ijtimoiy taraqqiyotda o'zining beqiyos ta'sirini ko'rsatdi. SHu boisdan ham uzoq yillar davomida, mafkuraga nisbatan jiddiy ehtiyoj sezilib keldi va shu ehtiyojning zahirida bizning bugungi mafkuramizning ilk qirralari namoyon bo'la boshladi. SHak-shubhasiz, mafkurasiz jamiyatning bo'lishi mumkin emas. Zero, mafkura insonning shajaraviy belgisi bilan uzviy bog'langan. U ushbu belgining o'ziga xos xususiy ko'rinishidir. Aslida ma'furaning ijtimoiy vazifalari shundan iboratki, u jamiyatning rivojlanishini, olg'a tomon harakat qilishini osonlashtiradi, millatni, barcha fuqarolarni umumiy maqsad yo'lida birlashtiradi. Ma'fura kishilarda milliy madaniyatni, milliy ongning, milliy gurning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. SHuningdek, u xalq va millatning kuch-qudrati va imkoniyatlariga, g'oyaviy-siyosiy jihatdan bir butun va yaxlitligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan mahalliychilik, guruhbozlik, qabila-urug'chilik munosabatlariga qarshi murosasiz kurash olib borishga keng jamoatchilikni da'vat etadi.

Ma'lumki, falsafa fani - qadimdan insoniyatning buyuk ma'naviy boyligi, tafakkur. mezonidir. U ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy, tarixiy-texnikaviy, ijtimoiy-gumanitar fanlar erishgan ulkan muvaffaqiyatlarga suyanish asosida rivojlanib borish bilan birga, kishilarda olam haqidagi bir butun, yaxlit dunyoqarashning shakllanishining yagona vositasi ekanligi bugun ko'pchilikka sir emas. Xuddi shu falsafa tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiy jihatlarini bilish asosida narsa va hodisalar, voqealar rivoji yo'nalishining ob'ektiv qonuniyatlarini kashf qilishga jarayonlarni oldindan ko'rishga, ularga g'oyaviy ta'sir etish yo'llarini belgilab olishga yordam beradi. Ana shu tabiat, jamiyat va tafakkurning eng umumiy qonunlarini o'rganuvchi falsafa fani» mafkura va siyosatga bevosita aloqadordir. Avvalo, falsafa ham, amaliy siyosat ham ijtimoiy ong va munosabatlarning shakli hamda namoyon bo'lishidir. O'z-o'zidan ravshanki, mafkura jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimini uyg'unlashtirib, ularni bir yo'nalishga solib, jamiyat rivojini chukurlashtirishga, tafakkurning kengayishiga xizmat qiladi. Ma'furaning ko'lami, miqyosi, insonparvarligi va istiqboli, asosan, aholi aksariyat qismining manfaatlarini ifoda etishi, uning ezgu maqsadlarga xizmat qilishi hamda tegishli ijtimoiy negizga tayanganligi bilan belgilanadi. SHuni ham eslatib o'tmoq joizki, toki fuqarolar ruhiyatida, tafakkurida o'zgarish bo'lmas ekan, taraqqiyot haqida gapirish mushkul.

Ruhiyat va qarashlar isloh qilinmas ekan, yangi davlat va jamiyat barpo etish g'oyasi ham samarasiz bo'ladi. Ruhiyat islohotini muayyan g'oya belgilaydi va u xalq ongini harakatga keltiradi. Milliy mafkura xuddi ana shu vazifani o'z zimmasiga oladi. Biz ana shu g'oyaga qarab intilmog'imiz va har bir qadamimiz, harakatimizni milliy goya va ideal mezoniga moslamog'imiz kerak.

«Mafkura - jamiyatimizdagi barcha kuchlar, ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlar, siyosiy partiyalar, ommaviy harakatlar, jamoa tashkilotlari, davlat hokimiyatining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ahlokiy, diniy, estetik, falsafiy karashlarining sistemalashtirilgan ilmiy bilimlar yig'indisidir», - deb yozishadi faylasuflar J. Tulenov va G'ofurov. Xuddi aia shu jamiyat a'zolarining mushtarak maqsadlarini ifodalaydigan mafkura mazkur jamiyatda quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- kishilarni muayyan g'oyaga ishontirish;
 - odamlarni muayyan maqsadlar yo'lida uyushtirish, safarbar etish;
 - kishilarni ma'naviy-ruhiy rag'batlantirish;
 - odamlarni g'oyaviy tarbiyalash;
 - kishilarda g'oyaviy immunitetni makkllantirish;
 - jamiyat a'zolari yoki ularning muayyan qismi uchun amaliy harakat dasturi bo'lish.
- Zotan, mafkura jamiyatning emas, aynan shu jamiyatdagi xalqning maqsad va intilishlarini ifoda etib, aynan xalq manfaatlariga xizmat qiladi.

Ma'lumki. ijtimoiy ong - g'oya, diniy, falsafiy, siyosiy-huquqiy, estetik, axloqiy va boshqa qarashlar, tasavvurlarning o'zaro uyg'unlashuvidan tashkil topadi. Jamiyat esa sizuz biz yashab turgan ijtimoiy borlikdir. Zero, mafkura jamiyat a'zolarining ehtiyojlari, maqsad-mudsaolari, manfaatlarini o'zida mujassam etuvchi g'oyalar tizimi ekan, demak, ijtimoiy ong - qarashlar, g'oyalar, tasavvurlar - uning ta'sirida tarkib topadi, unga birlashish, ergashish ehtiyoji tug'iladi. Bu esa, tabiiyki, jamiyatda yuz beradi. Falsafa fani, umuman, falsafiy tafakkurning bosh maqsadi insonni har tomonlama kamolotga etkazish, yangi davr, mavjud tuzum mohiyatini angalay olishi uchun tag - zamin yaratishdir. Buning uchun esa inson tafakkuri ob'ektiv olamga, voqelikka haqqoniyat ko'zi bilan, fahm-farosat ila qaramog'i lozim. Zero, olamning faqat sezgilar kuchi bilan payqab bo'lmaydigan, uni akd-zakovat, ma'naviyat, falsafiy tafakkur qudrati bilan zabt etilajak jihatlar ham mavjud. Bu borada falsafa fanlari doktori, professor M.N. Abdullaevaning ushbu fikrlarini keltirish ham o'rinli; "Inson ongi sarkitlardan, xar qanday asossiz g'oyalardan tozalangan, batamom xoli bo'lgan inson tafakkuriga ob'ektiv olamga, tashqi muhitga real qaray oladi. Ob'ektiv reallik inson tabiatiga xos. Inson ongi bir yo'la ikki funksiyani bajaradi. Ob'ektiv olamni, shu bilan bir qatorda inson tabiatini, birinchidan, his eta bilsa, ikkinchidan, o'z aql-idroki bilan kishilik jamiyatining ijtimoiy mezonlarini, ardoklanib kelayotgan qadriyatlarni diniy, siyosiy g'oyalarni his etib, idrok qila oladi". Xuddi shu inson ongida shakllangan mafkuraning turli shakllari, o'tmishdan bugungi kunga qadar, rivojlanib kelgan. "Insoniyat o'z tarixining to'qson to'qqiz foizdan ortiqrog'ini, yovvoyilik dunyosidan ajralib chiqib, vahshiylik davri orqali, sivilizatsiya, ya'ni madaniy taraqqiyot darajasiga etish uchun sarflagan, - deydi faylasuf olim Qo'chqor Xonazarov. Sivilizatsiyani, ya'ni madaniylikni yovvoyilik va vahshiylik qoldikdaridan qutqarish uchun insoniyat keyingi besh ming yil ichida izchil kurash olib borib, endi, XX asr oxirida bu borada ma'lum jidsiy o'zgarishga erishmokda". Bu esa inson ongida shakllangan mafkuraviy ijtimoiy munosabatlarning yillar davomida rivojlanib, jamiyatga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatganligi natijasidir. O'z

ma'no va mohiyatiga ko'ra mafkuralar falsafiy, dunyoviy, diniy ta'limotlar asosida rivojlanadi. CHunonchi, Uyg'onish davri va o'rta asrlarda milliy davlatchiligini tiklay boshlagan Evropa xalkdarining har biri falsafiy ta'limotlar asosida o'ziga xos mafkurasini yaratganligini ko'ramiz. Mazkur mafkuralar Rim imperiyasi parchalangandan keyin o'z davlatchiligiga ega bo'lgan xalk-larning o'ziga xos qadriyatlari va mentaliteta zaminida vujudga kelgan milliy falsafalar asosida shakllandi. SHu bois o'sha davr-dagi italyan, ingliz, fransuz falsafasi o'zi mansub bo'lgan jamiyat-ni birlashtirishga xizmat qildi. SHu bilan bir qatorda, bu milliy maktablar zaminida vujudga kelgan falsafiy ta'limotlar, ma'rifiy karashlar insoniyat madaniyati xazinasiga beqiyos qissa bo'lib qo'shildi. Dunyoviy ta'limotlar asosida yaratilgan mafkuralar hamisha umrboqiy bo'lib keldi. Asrlar mobaynida insoniyat bosqichma-bosqich dunyoviylik sari intilib keldi. Umume'tirof etilgan ta-moyillar va konun ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlar aro totuvlik, dinlar aro bag'rikentlik kabi xususiyatlar dunyoviy jamiyat asosini tashkil etib keldi. Insonning haq-hukukdari, erkinlik-lari, jumladan, vijdon erkinligi konun yo'li bilan kafolatlana-di. Bunday jamiyat mafkurasini o'z o'rnida diniy ta'limotlarni ham inkor etmaydi, «dunyoviylik dahriylik emas», degan tushuncha asosida rivojlanadi.

Tavrot, Injil, Talmut, keyinchalik, eng mukammal din sifatida, shakllangan Islom dinining sarkitobi bo'lgan Qur'on kabi ilohiy kitoblarda esa diniy ta'limotlar asosida yaratilgan o'ziga hos goyalar tasnifi - mafkurasi namoyon bo'lganligini ko'ramiz. «Islom dinida, xususan, Qur'on va hadislarda xudoga shirk keltirmaydigan, o'zida butun ijobiy xislatlarni to'plagan, butun diniy va dunyoviy qoidalarni bajargan odam yaxshilar qatoriga qo'shiladi. Va aksincha, boshqalarga ziyon-zahmat etkazadigan, zulm va zo'ravonlik qiladigan, ta'magir, ochko'z, takabbur, shafqatsiz va boshqa gunoh ishlar qiladigan, harom va harish ishlardan qaytmaydigan kishilar yomon hisoblanadi. IIQuning uchun hadislarning aksariyat qismi, odamlarni faqat yaxshi ishlarga da'vat qilishga, yomon ishlardan o'zini tiyishga bag'ishlangan», - deb yozadi H.A. Aliqulov.

Aslida xam xudochilik paydo bo'libdiki, insonni ma'naviy -ruhiy tomondan ilohiylar, tangrilarga talpinib yashashi, insoniyatning ilohiyotga sig'inishi, ularga bo'lgan yuksak ishonch ruhiyatini vujudga keltira boshlagan. Bu ibtidoiy insonni ongi shakllanayotgan paytda tabiat hodisalari: bo'ron, chaqmoq, bundan tashqari, quyosh, uning tutilishi ibtidoiy inson ongida qo'rquv, hayajon singari ruhiy holatlarni vujudga keltirgan. Aytaylik, quyosh chiqmay qolib, yuzini bulut qoplagan paytda, endigina shakllanayotgan ilk tafakkur nuqtai nazarida "u tabiatni ruhi bo'lsa kerak", degan tasavvurni yuzaga keltirdi. Natijada, asta-sekinlik bilan "ko'p xudolilik" hodisasi shakllana bordi. Xuddi ana shu ko'p xudolilik hodisasi shakllanishining o'ziyoq, mafkuraning dastlabki ibtidoiy ko'rinishlarini namoyon qila boshladi.

Asrlar osha bizgacha etib kelgan qadim O'rxun-Enisiy yodgorliklarida ham qadimgi urf-odatlarimiz, ular zamiridagi dastlabki nazariyalar bayon qilingan. Bizgacha rivojlanib, takomillashib etib kelgan har bir dinning ham o'ziga xos mafkuraviy dasturilamali mavjud bo'lib, bular muqaddas hisoblanib kelingan.

«Milliy istiklol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasida ham e'tirof etilishicha: insoniyat tarixidan ma'lumki, biron-bir jamiyat muayyan mafkurasiz yashay olgan emas. Tarixga sinchiklab nazar tashlasak, turli g'oyalarning ezgulik va yovuzlik, ozodlik va istibdod, ma'rifat va jaholatga xizmat qilgan mafkuralar shaklida namoyon bo'lganligining guvohi bo'lamiz, Ana shu mafkuraparning afsona va rivoyatlar vositasida

ifoda etilgan mifolo-gik, ilohiy qadriyatlar majmuasi bo'lgan diniy, olamga yondashuv asosida vujudga kelgan dunyoviy ko'rinishlari mavjud.

Ibtidoiy hayot davridan boshlab, mifologiyaga asoslangan di-niy-ilohiy qarashlar asosidagi totemizm, animizm, fetishizm kabi g'oyaviy tizimlar - mafkura shakllari namoyon bo'la boshlagan edi. Tarakkiyotning keyingi bosqichlarida esa milliy asosdagi xinduzm, iudaizm, konfuniylik singari liniy mafkuralar shakllana bogshta-di. YAponlar esa o'zlarining milliy dini - sintoizmni yarata boshladilar. Ma'lum bir tarixiy davrlarda milliy asosdagi diniy mafkura-lar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini yo'qotgan lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saklanib kelgan.

YUqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytganda, mafkura - jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lib, aynan shu jamiyat a'zolarining mushtarak maqsadlari, orzu va intilishlari, extiyoj va manfaatlarini o'zida aks ettiradi, shuningdek, ularni himoya etadi.

Mafkuraning tag zamini, tom ma'noda, uning manbalari ming yilliklar ka'ridagi uzoq o'tmishimiz, ajdodlarimizning milliy-madaniy hayot tarziga borib takaladi. Jamiyat rivojlanishini engillashtirish, millatni, barcha fuqarolarni umumiy maqsad yo'lida birlashtirish, xalqning milliy ongi, siyosiy madaniyatini yuksaltirish, o'z davri odamlari tafakkurini boyitish - mafkuraning ijtimoiy vazifasidir. G'oya va mafkuralarning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronalik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi. Bu kurash zahirida boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik, zo'ravonlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mus-taqillik va adolat g'oyalarining uzluksiz maydonga chiqishi va xalqning muzaffar bayrog'iga aylanishi yotadi. Muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalk va jamiyatning maqsad va orzu-intilishlarini o'zida mujassam etuvchi mafkura yaratilayotganda uning falsafiy, dunyoviy, diniy ildizlarga tayaniladi, ulardan nazariy asos sifatida foydalaniladi.

Odatda, yosh go'dakning ilk so'zi "ona" iborasini aytish bilan boshlanadi. U hamma tilda birdek jaranglaydi. Vatan so'zi ham xuddi shunday aks sado beradi. SHu tufayli bu ikki so'zning juft yozilishi, qorishiq ohanglarda bir-birini to'ldirishi va boyitib borilishida katta hikmat bor. Zero, ota-bobolarimiz ta'kidlaganlaridek, bu kalomlar iymon so'zi bilan ham baqamti va mushtaraqdir. SHuning uchun bo'lsa kerak, boshqa xalqdarning emas, aynan musulmonlar hikmatlaridagina "Vatanni sevmoq iymondandur", deyilgan. Har bir komil insonda Vatanga muhabbat iymon tuyg'usi ila yo'g'rilmog'i shubhasiz.

Alixon to'ra Soguniy o'z esdaliklarida shunday yozadi: "... Dunyoda yashagan har bir kishining ayamlik, qizg'anib sakdaydigan besh narsasi bordir, birinchisi - joni, keyingilari - dini, moli, oilasi va ona Vatanidir,,,"

Vatanimiz tarixida mafkura, kishilik hayotining dastlabki bosqichlarida, turmush tarzining eng mayda unsurlaridan boshlanib, yashashga ehtiyoj va intilishning samarasi sifatida dunyoga keldi. Ijtimoiy fikr mahsuli o'laroq dunyoga kelgan mafkura, jamiyat madaniyati va ma'naviy hayotining taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan holda shakllandi, rivojlandi. Bu jarayon uzoq tarixga ega.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari hayotida dehqonchilik va chorvachilik muxim ahamiyat kasb etib keldi. Bu hodisa sun'iy sug'orish va dehqonchilik madaniyatining yuksalishiga olib keldi. Demak, hayotga bo'lgan intilish, turmush tarzini shakllantirishga

bo'lgan ehtiyoj, o'z-o'zidan, milliy ongning rivojlanishiga va shu asosda umumiy manfaatlar yo'lida jamiyat a'zolarini g'oyaviy jihatdan birlashtirib turgan mafkuraning shakllanishiga zamin yaratdi.

Miloddan oldingi beshinchi asrning boshlarida, Markaziy Osiyoda zardushtiylik dini keng tarqalgan edi. Chunki bu paytlarda Markaziy Osiyo Eron tarkibiga kirardi. Shu tufayli bu ulkan hududla umumiy dunyoqarash va yaxlit g'oyalar vujudga kelgan edi. Va bu g'oyalar aholi turmush tarzi, axloqiy va ma'naviy qarashlari, adabiy va badiiy tafakkurini qamrab olgan bosh yo'nalish sifatida shakllandi. Zardushtiylikning asosiy kitobi bo'lgan "Avesto" ham yaxlit va shakllangan holda dunyoga kelgan ema. Aksincha, u uzoq asrlar davomida zardushtiylik tafakkuri va aholi umumiy dunyoqarashining mahsuli sifatida dunyoga kelgan noyob yozma yodgorlik hisoblanadi.

Zardushtiylik g'oyalarida jaholatga, zo'ravonlik va tazyiqqa, tuhmat va boshqa g'ayriinsoniy illatlarga nisbatan keskin qarshi chiqishlarga emas, balki oqko'ngillik, xiyonat qilmaslik, birovni tahqirlamaslik va shaxsiyatiga tegmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, adolatni xdmoya qilish kabi fazilatlarining targ'ib etilishi ana shu din hukmron bo'lgan ulkan hududda mafkuraning sog'lom kuchga, uning komillikka da'vat etuvchi kudratli g'oya sifatida shakllanganligidan dalolat beradi.

"Avesto"dagi g'oyalar xilma-xilligi, uning qismlarga bo'linishi - tuzilmasi o'ziga xoski, bu bir-birini to'ldirib borgan fikrlar insoniyat tafakkurining butun miqyosini qamrab olgan. Jumladan, unda baxt-saodat davri sifatida birinchi odam - yima davri oltin zamon, deb ataladi va undan odamzot tarqalganligi bayon qilinadi. Ikkinchi davrda yaxshilik bilan yomonlikning beayov kurashi, ezgulik va yovuzlikning to'qnashuvi haqida fikr yuritiladi. Uchinchi davr -kelajak, olis istiqbol haqidagi orzu-umidlar, oxir-oqibatda, yaxshilikning yomonlik, ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi kerakligi haqidagi orzu-umidlar aks etgan. Zardushtiylik jamiyatni yo'naltiruvchi, aholi turli tabaqalari manfaatlarini, ularning intilishlari, tinch hayoti, mehnat qilish, yaratish va bunyod etish g'oyalarini mujassam etgan mafkura sifatida shakllandi.

Miloddan oldingi to'rtinchi asrda esa Eron va Markaziy Osiyoga Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) lashkarlari hujum qildilar. Natijada, tub aholi turmush tarzida, ongi va tafakkurida keskin o'zgarish yuz berdi. Biroq Markaziy Osiyo xalkdari madaniyati va zardushtiylik o'z xususiyatlarini yo'qotmadi. So'nggi asrlarda, asta-sekin, hunarmandchilikning turli shakllari rivojlandi, savdo-sotiq yo'lga qo'yildi, madaniyat va san'atning ilk namunalari vujudga kela boshladi. Markaziy Osiyoga Oromiy alifbosi kirib keldi. Natijada, yozuv madaniyati ham shakllana boshladi. Markaziy Osiyo xalkdari og'zaki ijodining ilk namunalari, folklor asarlari paydo bo'la boshladi. Ayni To'maris, SHirok haqidagi dostonlar ham ana shu davrning mevalaridir. Ularda xalqimizning vatanparvarlik, jasurlik, ozodlik, mustaqillik, Vatanga sadoqat g'oyalari, ilk bor alohida jo'shqinlik bilan tarannum etiladi. Ayollar bilan erkaklarning turmushda tutgan o'rni, oila va jamiyat, inson kamoloti, uning etukligi haqidagi dastlabki qarashlar shakllana bordi. Mazkur asarlarni kadimgi yunonlarning "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan bimalol kiyoslash mumkin. Spitamen va To'maris haqidagi doston Markaziy Osiyoda qariyb ikki asr hukmronlik qilgan ahmoniylar davlatchiligi davriga to'g'ri keladi. Asarda tub aholining Eron podsholigiga qarshi ayovsiz kurashi, Vatan ozodligi, ayollarning beqiyos qahramonligi va ularning ko'lga kiritgan ulkan g'alabasi bayon etiladi,

Doro boshchiligidagi qo'shinni aldab, suvsiz sahroga boshlab borgan va shu bilan o'z Vatanini bosqinchilardan saqlab qolgan cho'pon SHiroq haqidagi dostonida vatanparvarlik g'oyalari, elu yurtga bo'lgan sadoqatning beqiyos timsollari madh etiladi. Mazkur asarlar o'sha davr axloqiy ongi, ijtimoiy tafakkuri darajasining mahsuli bo'lib, ular, qadimgi Markaziy Osiyoda aholi umumiy dunyoqarashini o'zida mujassam etgan, tom ma'nodagi mafkuraning dastlabki ko'rinishlari edi. Zero, bugungi milliy mafkurasining ilk manbalarini xuddi shu davrlardan izlashimiz mumkin. Ayni paytda yaratilayotgan milliy mafkurasi ham xalkimizning asl tarixini, milliy kddriyatlarini, urf-odatlarini unutilishiga yo'l qo'ymasdan, ularni avaylab, e'zozlab, yangi, o'sib kelayotgan avlodga etkazib be-rish uchun xizmat qilmog'i lozim. Ana shundagina milliy goya va mafkuraning ham, mafkuraviy an'analarning ham umrboqiy bo'lishiga shak-shubha yo'q.

2. Mafkura va uning ijtimoiy ong tizimidagi o'rni ...

Jamiyat taraqqiyoti inson ongi va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan jarayon. Inson esa jamiyatning yo'naltiruvchi kuchi sifatida faoliyat ko'rsatadi, tafakkur kuchiga tayanib ish olib boradi. Demak, ong butun taraqqiyotni, inson orzu-umidini ro'yobga chikaruvchi qudratli hodisadir. Ijtimoiy ongning shakllanishi, uning qamrovi va mikyosi, ayniqsa, jamiyat shakllanayotgan tuzum bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tish davrida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi. Albatta, turli davrlarda ijtimoiy ong turli shaklda dunyoga kelishi mumkin. Ba'zan, akd-idrokka, sog'lom fikr va hayot mantig'iga asoslanmagan, ko'r-ko'rona yondashuvlar, fanatizm va qotib qolgan tushunchalar ham ijtimoiy hayot rivojlanishiga ma'lum darajada salbiy ta'sir o'tkazadi. Buni bir necha ming yillik insoniyat tarixi ko'rsatib turibdi. Biroq har qanday sharoitda ham sog'lom fikr va keng tafakkurga tayangan, ijtimoiy ong jamiyat taraqqiyotining asosidir.

Ma'lumki, ijtimoiy hayotda o'zgarish bo'lsa, albatta, keyingi taraqqiyot yo'nalishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. SHubhasiz, sobiq Ittifoq parchalangach, birorta ham respublika avvalgi sotsialistik tuzumda qolishni istamadi. Jamiyat badnom bo'lgan kommunistik mafkurani tan olmadi, undan voz kechdi. Biroq mamlakat taraqqiyotini, uning rivojini milliy g'oya va mafkurasiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHu bois ham bugungi milliy g'oya va mafkura zamonning, hayotning o'zidan, o'tmishdan, bugundan, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi do'stlikdan, an'analardan maydonga kelishi lozim. YAna u jamiyatning moddiy turmush tarzini, siyosiy hayotini, iqtisodiy manfaatlarini ifodalashi kerak. Mafkurasiz jamiyatning tanazzulga yuz tutishi muqarrar. Ilg'or, g'oyaviy etuk mafkuraga asoslanmasdan turib, kelajak sari qadam tashlab bo'lmaydi. Bunday yo'ldan borgan har qanday millat o'z yo'lidagi kichkina to'sikdan ham o'ta olishi dargumon. SHu jihatdan olganda, ijtimoiy ong tizimida mafkuraning o'rni beqiyosdir. Sobiq ittifoq parchalanib, O'zbekiston mustaqillikning ilk bo'sag'alariga qadam ko'ya boshlagan kezlarda ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan qiyinchiliklar uchrab turgan bir pallada jamiyatimiz taraqqiyotini bundan keyin har qanday mafkuradan butunlay xoli qilgan holda davom

ettirishni ma'qul ko'rganlar va o'z o'rnida ushbu yo'lni targibot qiluvchilar ham paydo bo'la boshladi. Biroq jamiyatning o'zi O'zbekistonning bugungi kuni, ertangi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy - ma'naviy zaminlarini yaratish va mustaxlamlanish uchun mafkura suv va havodek zarurligini isbotlab berdi. SHu o'rinda Prezident Islom Karimovning ushbu mulohazalarini keltirish o'rinli: "Mustakillikka erishganimizdan so'ng biz soxta mafkuraning yakkahokimligidan qutildik. Ma'naviyatni, mafkurani zug'umlardan ozod qilib, erkin fikrga milliy tafakkurga keng yo'l ochdik. Endigi asosiy vazifa kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining orta borishidir. CHunki tafakkur ozod bo'lmasa ong va shuur tazyikdan, qullikdan qutulmasa, inson to'la ozod bo'lolmaydi",¹. Ma'lumki, ijtimoiy ongning kundalik ko'rinishida kishilarning turmush doirasidagi o'y-kechinmalari, ularning his-tuyg'ulari, kayfiyatlari o'z ifodasini topadi. Biroq kundalik ong darajasidagi fikr, mulohaza, xulosa va umumlashtiruvlar hammavaqt ham to'g'ri va odilona bo'lib chiqavermaydi. CHunki ularda voqelik yuzaki ifodalangan bo'ladi. Ijtimoiy ongda sodir bo'ladigan xato va yanglishuvlar ko'pincha shundan kelib chiqadi. Voqelikning ichki mohiyati, uning rivojlanish qonuniyatlari nazariy ongda ifodalanadi. Real hayotda kundalik ong bilan nazariy ong bir-birining o'rnini bosa olmasa-da, ammo ular, o'zaro bog'lik holda, bir-birlariga ta'sir qiladilar. Kundalik ong nazariy ong uchun ilk manba bo'lib xizmat qiladi. Nazariy ong, kundalik ongni taxdil qilish natijasida uni o'zgartiradi, unga ilmiy baho beradi, undagi ichki mohiyatni ochib berishga harakat qiladi. Mafkura ana shu nazariy ongning bir ko'rinishidir. U mutafakkir yoki donishmand, siyosatchilar tomonidan yuzaga keltirilib yoki ixtiro qilinibgina qolmay, balki mafkuraning paydo bo'lishi uchun jamiyatning o'zida ehtiej, talab bo'lishi shart. Busiz ilm-fan ham, mafkura ham vujudga kelmaydi. SHu ma'noda mafkura ijtimoiy ehtiyojlar mahsulidir. Ayni shu ehtiyojlarni ma'naviy qondirish uchun xizmat qiluvchi mafkura siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, badiiy, diniy qarashlarning muayyan, tartibga solingan, tizimidir.

Tor ma'noda olganda mafkura - jamiyatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning, ijtimoiy guruxdar, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, ommaviy harakatlar, diniy uyushmalar, yoshlar > ayollar, faxriylar, tadbirkorlar va boshqa ijtimoiy sub'ektlarning umumiy manfaat va muddaolarini o'zida aks ettiruvchi va ularning boshini biriktirib, jipslashtirib bitta asosiy maqsadga - respublikamiz mustaqilligini mustaxdamlashga undaydigan milliy haqidagi g'oyalar, bilimlar majmuasidan iboratdir"

SHuni ham alohida qayd qilish lozimki, insonning ongida hech vaqt bo'shliq bo'lmaydi. U doimo o'ylaydi, tafakkur qiladi, his-tuyg'ular bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Agar mazkur o'y-fikrlar umuminsoniy qadriyatlarni ifodalasa, unda faollik ijtimoiy taraqqiyotga kuchli ta'sir qiladi. Ijtimoiy ong esa muayyan mafkura ta'sirida shakllanadi va u ayrim shaxslarda, ularning tegishli falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, badiiy qarashlari orqali namoyon bo'ladi. Mafkura ma'rifatsiz shakllanmaydi, o'qimishlilik evazigagina milliy ildizlar, qadriyatlar, zamin uchun faxrlanish tuygulari, muayyan salohiyatga ega bo'ladi. SHu jihatdan qaraganda, bosib o'tilgan tarixiy yo'lni odilona baholash, mustaqillik kun tartibiga qo'yayotgan masalalarni to'g'ri hal qilish, kelajak uchun ishonchli zamin tayyorlash va xalkning milliy o'zligini anglashi mumkin bo'ladi. O'z Vatani va xalqi bilan faxrlanish hislari, millat qadr-qimmat, milliy birlik, vatanparvarlik va xalqparvarlik tuyg'usi milliy mafkuraning asosini tashkil etishi lozim. Zero, har qanday mafkura xalqning ma'naviyati, uzoq tarixi bilan bog'langan. Ana shularga tayangan takdirdagina,

qudratli ijtimoiy kuchga aylanadi. Chunki mafkura ommaning ma'naviyatiga, dunyoqarashiga, tafakkuriga, insonning ma'naviy qiyofasi esa mafkuraga uzluksiz ta'sir o'tkazib turadi. Soglom mafkura jamiyatda mavjud bo'lgan barcha millat va elatlarni mushtarak bir maqsadga undaydigan g'oyalar tizimidan tashkil topadi.

Mafkura ijtimoiy taraqqiyotdan orqada qolishi ham, undan o'zib ketishi ham mumkin. Agar orqada qolsa, jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'ladi yoki haddan tashqari ilgarilab ketsa, xalkdan uzokdashib qolishi mumkin. SHu boisdan ham mafkura taraqqiyotdan oldinda yurishi mumkinu, lekin undan uzilib ketishi kutilgan samarani bermaydi, ya'ni xalk orasida keng tarqalmaydi. Ilg'or mafkura ilg'or ijtimoiy kuchlarni safarbar qila oladi, uyushtiradi, jamiyat tarakkiyotini tezlashtiradi. Bunday ilg'or mafkura ijtimoiy taraqqiyotni amalga oshiruvchi kishilar tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilgandagina, unga etakchi siymo rahbarlik qilgandagina, tarix rivojiga ta'sir ko'rsata oluvchi kuchga aylanadi. Mafkura, shuningdek, ijtimoiy ongning boshqa shakllari bo'lgan axloq, estetik ong bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ular qanchalik takomillashib, ravnaq topsa, mafkura ham shunchalik takomillashib, boyib boraveradi. Axloq kishilarning jamiyatdagi xatti-harakatlari, yurish-turishlari, yashash me'yorlari, tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ularning o'zaro bir-birlariga hamda ijtimoiy birlashmalarga bo'lgan munosabatlarini ifodalab, estetik ong[^] voqelikni badiiy obrazlarda aks ettirsa, mafkura ijtimoiy ongning har ikkala ko'rinishiga mushtarak holda, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, g'oyalarning bir tizimga solingan ifodasi bo'ladi. Har bir xalqning e'tiqodiga aylangan udumlari, an'analari, urf-odatlar, dini, turish-turmushi, o'ziga xos etakchi g'oyasi mavjud. Ana shularning hammasi birlashib, milliy mafkurani tashkil etadi. "Milliy" so'zining falsafiy va mantiqiy tahlili, bizdan uni ikki xil tushunishni taqozo etadi. Bu, birinchidan, keng ma'noda butun jamiyat, u mumiy xonadon - mamlakat xalqi qiyofasinn ko'rsatadi. Bunda millatidan, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy mansubligi va boshqa jihatlaridan qat'i nazar, yashab turgan makoni, uning tarixi, madaniyati va takdiri uchun javobgarlik hissini tuymoq lozim. Ana shu mamlakat fuqarosi bo'lganligi bilan faxrlanuu, o'z taqdirini uning takdiri bilan bog'lash kabi yuksak ma'naviy qudratni shakllantirish lozim. Ikkinchidan; nisbatan tor ma'noda tub aholi, ma'lum bir xalqning tarixiy birligi va shu tufayli vujudga kelgan millat tushunchasini bildiradi. Bu milliy qadriyatlarni, tarixiy an'analarni takomillashtirish, uni rivojlantirish bilan birga yaxlit mamlakat ma'naviy-siyosiy rivojining kafolati bilan belgilanadi, YA'ni ko'p millatli mamlakatda tub aholi manfaatlari boshqa xalkdar manfaatlarini cheklab qo'ymasligi, fanatizm, ekstremizm va milliy maxdudlikka olib kelmasligi darkor.

3. Milliy mafkura shakllanishining asosiy tamoyillari

Mustaqillik jahon taraqqiyotiga ulkan hissa ko'shgan o'zbek xalqi hayotida, mamlakatimizda yashayotgan barcha xalqdar tarixida, sharqning turmushi, madaniyati, ma'naviyati, dunyoqarashi va mafkurasida tub burilish yasadi. Xalqning sa'y-harakati, xohish-irodasi tufayli mamlakatimiz mustaqillikka erishdi. Albatta, bu osonlik bilan bo'lmadi. Mavjud siyosiy tuzum mohiyatini anglash, mustaqillik mafkurasining mazmunini tushunish ko'p vaqt talab etadigan hodisa. SHu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar borishini o'z vaqtida kuzatib, to'g'ri baholay olish muhim. O'zbekistonni sobiq ittifoq doirasidan chiqishida ana shu fazilat boshqalardan oldinroq o'z kuchini ko'rsatadi. Odatda bir maromdagi haet tarzi favqulodda o'zgargan, odamlar hayotida tub burilishlar sodir bo'lgan paytda dastlab uning mohiyati, voqealar va jarayonlarning ta'siri xususida daf'atan o'ylamaymiz. Zero, bunga ehtiyoj ham, fursat ham etmaydi. Ayni ana shu ta'sir kishi dunyokarashini, ongi va tafakkurini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkinligi xayolimizga ham kelmaydi. Bir zum mustaqillikkacha bo'lgan davr va uning dastlabki yillari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarini eslaylik. Ayni ana shu paytdagi goyaviy kurashlar, mafkuraviy to'qnashuvlar, qarashlar va tushunchalarning xilma-xilligi, ayniqsa, ularning akl-idrokdan ko'ra ko'proq hissiyotga moyilligi kishilarni birmuncha sarosimaga solib qo'ygan edi. Darhaqiqat, odamlar eskilik bilan yangilik, qotib qolgan tushunchalar va yangicha g'oyalar o'rtasida qolib ketdilar. Ular tafakkuridagi sarosimalik ertangi kunimiz qanday bo'lishi, biz qayoqdarga borishimiz, endi hayotimiz qanday mazmunga ega bo'lishi singari muammolardan kelib chiqqan edi.

Totalitar tuzum va ma'muriy-buyruqbozlik boshkaruvi tuzumi manfaatlaridan kelib chiqqan kommunistik mafkura barbod bo'ldi, U hayotda o'z o'rnini topa olmadi, tanazzulga uchradi. SHundan so'ng mustaqillik g'oyalari, uning maqsadi va ahamiyati xususidagi turli mulohazalar va yondashuvlar paydo bo'la boshladi. Ana shunday ma'naviy-ruhiy, ijtimoiy-siyosiy bo'hronlar paytida aholi fikrini bir nuqtada jamlab, ularni mustaqillikni qo'lga kiritish, asrash va mustaqkamlash ishiga safarbar etadigan g'oya, asosli maqsad kerak edi. Ana shu maqsadda mamlakatimiz Prezidenti milliy istiqlol mafkurasini ishlab chiqish va uni hayotga joriy etish g'oyasini ilgari surdi. Mustaqillik sharoitida jamiyatda yuz berayotgan demokratik jarayonlar, hur fikrlilikka intilish odamlardan hodisalarga yangicha tafakkur bilan karashni taqozo qilardi. Masalaning yana boshqa bir tomoni ham bor edi. Bu bevosita uzoq yillar mobaynida hukmron bo'lgan g'oya va aqidalardan xalos bo'lish, uning bir yoqlama, havoyi, balandparvoz da'vatlaridan voz kechish kabi og'ir, vaqt talab etadigan jarayon bilan bog'liq, Endi tafakkur tarzi va qarashlarni tubdan o'zgartirish uchun avvalo, o'sha davrning bosh mafkurachisi sobiq kommunistik partiya g'oyalaridan voz kechish, kolaversa, butunyaay yangi, zamon

talablari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqadigan mafkurani ishga solish lozim edi.

SHu bois respublika mafkuraviy aqidalarga va bir qolipdagi safsatabozlikka bo'ysunadigan, inson, xalq, jamiyat manfaatlariga putur etkazadigan siyosiy, mafkuraviy va davlat tuzilmalaridan dadil voz kechila boshlandi. Ijtimoiy adolatni, xavfsizlik, ijtimoiy muhofazani, millati, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish tomon yo'l tutildi.

O'zbekiston Prezidenta I. Karimovning 1992 yilda nashr etilgan "O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li" asari milliy mafkurasi uchun nazariy asos, ma'naviy hayot uchun yo'l-yo'riq bo'ldi. Asarning "Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari", deb atalgan bobida ilgari surilgan umuminsoniy kadriyatlarga sodikdik; xalkimizning ma'naviy merosini sakdash va rivojlantirish; inson; o'z imkoniyatlarini erkin namoyish qilishi, vatanparvarlik tamoyillari istiqlool mafkurasi uchun asos bo'luvchi koidalardir. Mustaqillikka erishilgandan keyingi o'tgan ikki yillik tajriba respublikamizdagi barcha fuqarolarni, ularning millati, siyosiy va goyaviy qarashlaridan, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, istiqloolni mustaqamlashga chorlovchi g'oyalar majmuasidan iborat o'ziga xos milliy mafkura yaratish zarurligini ko'rsatdi. SHu sababli Prezident Yslom Karimov 1993 yilning 23 aprelvda bir guruh adiblar bilan bo'lgan uchrashuvda ana shunday mafkura yaratish zarurligini ta'kidladi. 1993 yil 6 mayda mamlakat Oliy Kengashining XII sessiyasida kilgan ma'ruzasida Prezident mafkurasiz, anik yo'nalishga ega bo'lgan g'oyalarsiz taraqqiyot bo'lmasligini ta'kidlab: "Oldimizda turgan eng muhim masala bu milliy istiqlool mafkurasini yaratish va hayotga tatbiq etishdir", - dedi. O'zbekyston Konstitutsiyasining bir yilligiga bag'ishlangan tantanali yig'tshishda (1993 yil 7 dekabr)da mamlakat Prezidenta I. Karimov nutq so'zlab.. milliy mafkurani milliy eqtiyoj darajasiga ko'tarish zarurligini ta'kidladi. Barchaning diqqat-e'tiborini ana shu muhim masalaning hal etilishiga qaratdi va "Mafkuraviy masalani hal etmasdan, uni amalda tatbiq etmasdan turib, Konstitutsiya belgilab bergan maqsadga erishish, o'z oldimizdagi qo'ygan talablarga javob berish mushkul bo'ladi. Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy dasturni yo'lga qo'ymoq kerak", degan fikrni ilgari surdn. Demak, milliy mafkurasi o'z mohiyati va negizlariga ko'ra mustaqillikni mustahkamlashga, mamlakatimiz barcha imkoniyatlarini buyuk maqsad sari yo'naltirishga qaratilgan. Kishilar ongi va tafakkuridagi yangilanish jarayonlari ayniq-sa, sobiq ittifoq doirasidan ajralib chiqqan mamlakatlarda yaq-qolroq ko'zga tashlanmokda. CHunki bu mamlakatlar hayotida tub burilishlar, chinakamiga inqilobiY o'zgarishlar yuz bermokda. Jamiyatning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi, ijtimoiy hayotdagi ququqiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarning tobora chuqurlashib borayotganligi bevosita odamlar duneqarashiga jiddiy ta'sir etmokda, vaholangki, hayotga munosabatlari o'zgarmoqda. Turmush tarzida burilish sodir bo'lmokda. Mustaqillik bergan imkoniyatlar va inson tafakkuridagi o'zgarishlar faqat bugina emas, chunonchi, ma'naviy olamimizdagi o'zgarishlar yuqorida sanalgan barcha yangilanishlarning asosidir. Zero, vatan, millat tununchalari tobora chuqurlashmokda.

Milliy iftixor tuyg'usi - o'z milliy mansubligidan faxrlanish imkoniyati. Milliy iftixor tuyg'usi - o'z millati boy tarixidan, madaniy va ma'naviy merosidan, boy tarixidan, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasidan g'ururlanish salohiyati. Milliy iftixor tuyg'usi-o'zligini anglash va o'zligini asrashga o'zini-o'zi da'vat etuvchi ulkan ma'naviy

kudrat. Biroq unga ortiqcha hirs qo'yish milliy xudbinlikka, milliy maxdudlikka olib keladi, bora-bora milliy kalondimog'likdek o'ta xavfli va yukumli kasallikka aylanadi.

Millatga mansublik o'ta nozik va ayni paytda juda murakkab holat. Kishi zarur bo'lganda o'z hayotidagi jamiki ne'matlardan xech og'rinmasdan voz kechishi mumkin. Bu nimalarningdir ta'sirida yuz beradigan murakkab va ziddiyatli ma'naviy-ruhiy fojia. Birok, hech kim, hech qachon milliy mansubligidan tonolmaydi. Uni xoqlagan paytida xohlagancha o'zgartirolmaydi. Chunki millatga mansublik hislari tiriklik va mavjudlik bilan bog'lanib ketgan. U insonning qon-qoniga, ming bir hujayrasiga singib ketganki, vujud bilan birga yashaydi va vujud bilan birga yo'q bo'ladi. Buni anglamaganlar garib va bechoradir. Buni his qilolmaganlar so'qir, ma'naviy qashshoq kishilardir. Boshqacha emas. Ammo millatga mansubligidan faxrlanish va milliy iftixor tuygulari bilan . millatchilik, milliy his-tuyg'ularga ortikcha yo'l berish hissi boshqa-boshqa, bir-biriga zid narsalar. Ular o'rtasida ma'rifat va jaholat, sadoqat va qabohat kabi bir-biriga qovushmaydigan, aksincha bir-birini mahv etishga intilib yashaydigan bedodlik mavjud.

Milliy mafkurasining ma'naviy, madaniy va yuksak axloqiy-ruhiy qadriyati shundaki, u hammavaqt, har qanday sharoitda kishini komillikka da'vat etadi. Zotan, uning siyosiy aqamiyati va qiymati ham xuddi shu bilan belgilanadi.

Milliy istiqlol mafkurasini xalqimizning ijtimoiy-etnik birligining haetiy ehtiyojlarini zarurat darajasida idrok etish jarayonida vujudga kelmog'i lozim. Ana shunda milliy manfaatlarimiz voqeligimizdan, uning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, siyosiy sohalaridagi ehtiyojlardan chukurroq anglanadi. Milliy mustaqillik mafkurasini deganda milliy voqeligimizdan, mavjudlik qonuniyatlarimizdan kelib chiqadigan iqtisodiy^ ijtimoiy, madaniy, siyosiy ehtiyojlari va manfaatlarining tub ustuvor va salohiyatli muammolarini ilmiy asosda hal etib, taraqqiyotimizning maqsad va vazifalarini belgilash, ularni ro'yobga chiqarishda insonparvar, adolatli yo'l, usul hamda vositalarni belgilovchi g'oya va fikrlar majmuini tushunish mumkin. Lekin shuni alohida ta'kidlash joizki, bu borada milliy maqsad va vositalar yagona xonadon-Vatan ravnaqi yo'lida mushtarak bo'lishi, mutanosibliigi hal qiluvchi aqamiyat kasb etadi. Chunki ezgu maqsadga faqat to'g'ri vositalar orqaligina erishish mumkin. Demak, mafkuraning oliy hukmdori haqiqatdir. Uning birdan-bir mezonini esa milliy hayot, tub zaminda shakllangan turmush tajribasi, xalk ruhiyati bo'lmog'i lozim. Hayot tajribasi va xalk orzu-umidiga yo'g'rilgan mafkuragina uzoq yashaydi. Milliy istiklol mafkurasining dastlabki tamoyili, ya'ni milliy g'oya va ideal shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omil -axlokdir. Xalq ommasi moddiy va ma'naviy boyliklarnigina emas, shu bilan birga, insoniyat axloqiy qadriyatlarining ham ijodkori, uni ko'z qorachig'idek avaylab-asrovchisi va takomillashtiruvchisidir.

Tarixdan ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti yo'lida xizmat qilib kelgan va xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy madaniyat odob-axloq, mehnatkash insoining amaliy faoliyati jarayonida rivojlanib borgan. Xalq ommasi tomonidan bir necha ming yillar davomida yaratilgan maqollar va matallar, rivoyatlar va falsafiy asarlarda halollik va poklik madh ztilgan, birovlar haqiga xiyonat qilish, mehnat kilmasdan kun ko'rish, o'g'rilnk, poraxo'rlik, ta'magirlik qattiq qoralangan. O'zidan kattalarni hurmat kilish, bemorlarga yordam berish, boshqa millatlar va xalkdarga mansub bo'lgan kishilarning tili va tarixi, madaniyati, ilg'or udum va an'analariga hurmat bilan qarash, tabiat va uning boyliklarini e'zozlash uqtirilgan, do'stlik, ahillik, o'zaro hamkorlikda hayot kechirish, tinchlik uchun

kurashish, kuramlarga, besabab qon to'kishlar va xunrezliklarga yo'l ko'ymaslikka da'vat etilgan. SHuning uchun ham umuminsoniy madaniyat: axloq va axloqiy qadriyat, o'z ahamiyatini qech qachon yo'qotmaydi, ular insoniyatning eng katta ma'naviy xazinasidir. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlardan foydalanmasdan turib, insoniy munosabatlarni mustahkamlab, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Axloq - bu milliy tafakkurning bosh mezoni. Milliy fikrning zaiflashuvi, boshka yot tafakkur qarshisida o'jizligi – ma'naviy axloqiy sohaning tanazzuli tufayli yuz beradi. Milliy g'oya va milliy idealning shakllanishi esa axloqiy kamolot samarasidir.

Bugun O'zbekistonda, tom ma'noda milliy mafkurasi yaratilmokda. Jumladan: Birinchidan, alohidalik, umumiylik, xususiyluk kategoriyalarida ifodalanadigan, narsa va hodisalar, jarayon va voqealar rivojlanishining yo'nalishi, doimo muayyan izchillikda, ya'ni, alohidalikdan xususiylikka, xususiylukdan umumiylikka va aksincha, o'tishlar shaklida yuz beradi. Demak: respublikamiz alohida mustakil davlat sifatida, sobiq ittifoq tarkibidan ajralib chiqdi; o'z taraqqiyotining xususiyluk negizlarini, yo'lini belgilab oldi; nihoyat o'zining ilg'or jahon xamjamiyatida o'rnini egallashga kirishdi.

Ikkinchidan, ayni istiqloq qadriyat sifatida, milliy mafkuraning hayotiy asosini tashkil etadi. Uchinchidan, sabab va oqibat kategoriyalari boshka kategoriyalardan farkdi o'laroq, taraqqiyotning kelib chiqishini aniqlaydi. Ular bizga narsa va hodisalar, jarayon va voqealar nima uchun unday emas, bunday ro'y beradi, degan savolga javob berishga yordam beradi. Xuddi shuningdek, milliy mafkurasining yaratilishi xuddi shu kategoriyalar orqali o'rganildi. Va nihoyat, to'rtinchidan, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl kategoriyalari narsa va hodisalarning rivojlanishi, ular ichki tabiatining o'zgarishi bilan boshlanishini ifodalaydi, Bugun yurtimizda har bir inson mustaqillik mohiyatini, uning mazmun va shaklini ongli ravishda, to'laonli anglab, his etmokda. Hozirgi jaxon taraqqiyotida biror- bir xalq o'z ma'naviy milliy qadriyatlari doirasida chegaralanib kolib, rivojlana olmaydi, shu sababli, istiqloq mafkurasini shakllantirishda biz jahon madaniyati, boshqa xalqlarning tarixiy tajribalariga ham suyanishimiz darkor.

Bugun O'zbekistonda tom ma'noda milliy qadriyatlarimizga, an'analарimizga, tafakkur va dunyoqarashimizga asoslangan milliy mafkurasi tarkib topar ekan, jamiyatning o'z-o'zini boshqarish darajasi kishilar ongining o'sishi, tafakkur madaniyatining etukligi bilan bog'liq bo'larkan, shubhasiz, bu yo'lda partiyalar etakchilik qila olishga qodir kuchga aylanishlari lozim, Aks holda, jamiyatdan orqada qolishlari turgan ran. Aslida milliy mafkurasi xalqimizning tabiati, irodasi, orzu va intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

-xalqimiz hayotida qadim-qadimdan jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi;
-ota-ona, mahalla-ko'y, umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tibor; -millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat; -kattaga hurmat va kichikka izzat;
-mehr-muhabbat, go'zallik va nafosat, hayot abadiyligining ramzi - ayol zotiga ehtirom; -sabr-bardosh va mehnatsevarlik; -halollik, mehr-oqibat.

SHu bilan bir qatorda milliy istiqloq mafkurasi quyidagi umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi va ulardan ozikdanadi: qonun ustuvorligi;inson xaq-huquklari va hur fikrliligi; -turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat yashash;diniy bag'rikenglik;dunyoviy bilimlarga intilish, ma'rifatparvarlik;o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish. Ana shu tamoyil va qadriyatlar ustuvor yo'nalish

kasb etgan taqdirdagina yaratilayotgan milliy g'oyasi va mafkurasi oliy qadriyatga aylanadi va yashovchanlik kasb etadi.

Ushbu fikr va mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugun biz juda muhim tarixiy davrni boshdan kechiryapmiz. O'tish davrining xdr bir kuni mazmuni o'tmishimizning yillariga teng kelmokda. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar oqimi nihoyatda tez. Dunyo yangi yuz yillik va yangi ming yillikka qadam ko'ydi, Ana shunday bir paytda jahon miqyosida o'zini namoyon etayotgan O'zbekiston yangi asr va yangi ming yillik arafasida tuzgan rejalarini amalga oshirishga kirishmokda. Xuddi mana shu ilk kadamlar O'zbekistondagi milliy mafkurasi shakllanishining asosiy tamoyillari asosida tarkib topdi. Xususan, ularning birinchisi, ongli va irodali fuqarolar jamiyatini vujudga keltirish; ikkinchisi, ma'nan etuk, komil inson shaxsini tarbiyalash; uchinchisi, ertangi kunning munosib vorislarini tayyorlash, ya'ni kadrlar masalasi; to'rtinchisi, xalq turmush darajasini yaxshilash; beshinchi, iqtisodiyotni takomillashtirish va nihoyat oltinchisi, jamiytdagi barqarorlik, tinchlik, millatlar va fuqarolar totuvligini, davlatimizning hududiy yaxlitligini ta'minlash, mamlakat tinchligi va osoyishtaligini saklashdan iboratdir.

4. Milliy mafkurani mamlakatimiz ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati

Har bir mafkuraning mazmun va mohiyati jamiyatning o'ziga xos xususiyatlari, o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan belgilanadi. Xuddi shu o'rinda Uzbekistan taraqqiyoti va uning milliy mafkurasining o'ziga xos tomonlari mazmun va mohiyati nimalardan tarkib topadi, degan o'rinli savolning tugalishi tabiiy.

Avvalo, ta'kidlash mumkinki, milliy mafkura xalqimizning milliy qadriyatlari, an'analari hamda umuminsoniy qadriyatlariga asoslanadi. Ular mafkuramizning tamal toshlari hisoblanadi. Ma'lumki, kishilik jamiyati taraqqiyoti va istikboli uchun ahamiyatli bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy hodisalarning barchasi qadriyatlar jumlasiga kiradi. Inson o'z qadrini, olam kadrini, koinot qadrini anglay boshlaganida falsafani, uning ahamiyatini anglay boshlaydi. Demak, xuddi ana shunda tafakkur ilmining beqiyos ahamiyati namoyon bo'la boradi. Zero, milliy mafkuraning ibtidosi ham tafakkurimizdagi islohotdan, olamni,

o'tmishni va bugunni, qo'ying-ki, buyuk Vatanni anglashdan boshlanadi. Inson uchun bu yorug dunyoda Vatanidan aziz va mukarram, Vatandan ko'ra mo'tabar, Vatanidan qutlug'roq narsa yo'q, u bo'lgan ham emas, bo'lmaydi ham. Millatini, milliy tuyg'ularini, urf-odatlarini yo'qotgan xalqning olomondan farqi bo'lmaydi. O'z qadr-qimmatini unutgan, yashab turgan turmushiga ko'nikib qolgan, boshqacha hayotni tasavvur qila olmaydigan qulning tarixi bo'lmaydi. SHu bois insoniyat tarixida ne-ne imperiyalar inqirozga uchrab, tarix sahifalaridan o'chib ketdi. CHunki buyuk ishlarni hak-huquki poymol etilgan erksiz, til-zabonsiz qul darajasiga tushib qolgan kishilar bilan yaratib bo'lmaydi. O'tmishga- aylanib ulgurgan kechagi tariximizdan misollar keltirishdan asosiy maqsad mavjud tuzumni iqtisodiy-ijtimoiy bo'hronga olib kelgan asosiy sabablardan biri, jamiyatda avj olgan ma'naviy qashshokdik ekanligini e'tirof etish edi,

Keltirib o'tilgan misollardan bilsa bo'ladiki, odamlardagi g'oyaviylik ham, siyosiy onglilik ham, ijtimoiy faollik ham ma'naviy kddriyatlarga tayangandagina haqiqiy ahamiyat kasb etadi. CHunki inson hayotiy faoliyati mavjud odob-axloq mezonlari doirasida yuritib, shu bilan o'zi ham ma'naviyatning yuksak cho'qqilarini egallay boshlaydi. Xalq xo'jaligining samaradorligida, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni yuzaga kelishida, shubhasiz, ma'naviy tafakkur katta rol o'ynaydi. Bugun biz demokratik, huquqiy jamiyat qurish uchun iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy soqalarda islohot olib borar ekanmiz, ularning to'la ro'yobga chiqishida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan istiqlol mafkurasiga ilhomlantiruvchi va harakatlantiruvchi kuch deb qarashimiz o'rinli.

YAngi iqtisodiy munosabatlarga o'tilar ekan, albatta, bu jamiyatda uni amalga oshiradigan kishilarni, ularning ruhiyatini bunga tayyorlab borish lozim bo'ladi, CHunki yangi ishlab chiqarish munosabatlari mulkchilikning xilma-xil shakllari va boshqa qator o'zgarishlar totalitar tuzum sharoitida faoliyatsizlikka o'rganib qolgan, jon kuydirib ishlamasa ham maoshini vaqtida olishga ko'nikib, atrofida yuz berayotgan barcha hodisalarga loqayd qaraydigan ko'pchilik kishilarni qarakatga keltirish oson ish emas. Inson ruhiyati shundayki, u o'z ko'nikmalaridan tezda voz kecha olmaydi. SHunday ekan, bu odamlarga yangicha hayot mohiyatini tushuntirish, ularning o'z takdiri o'zlarining qo'llarida ekanligini, qanchalik ishbilarmon, tadbirkorlik bilan ishlagan odam o'z mehnati samaralaridan o'zi manfaat ko'radi, degan aqidaga ishontirish kerak. Albatta, odamlarning shu g'oyalarga amal kilib, faollik kursatishlari uchun ma'lum vaqt kerak. Davlatimiz rahbarining iqtisodiyotni yaratishda O'zbekistonning o'z yo'li bor, deyishining boisi ham biz bu usulga bosqichma-bosqich, aholini ijtimoiy muhofazalab o'tamiz, degan so'zlarining asl mohiyati ham ana shundan kelib chiqadi. Demak, kishilarni olib borayotgan, rejalashtirilgan ishlarimizga yo'naltirish uchun ularning ruhiyati ham bunga tayyor bo'lishi shart. Buning uchun esa odamlarni bu boradagi bilimlar bilan qurollantirish, ularda haqiqiy, istiqlolimiz manfaatlariga xizmat qiladigan dunyoqarashni shakllantirish zarur bo'ladi.

Jamiyat taraqqiyoti ma'lum bir makonda asrlar mobaynida yashagan xalq, uning bir necha ming yilliklar mobaynida shakllangan an'analari, urf-odatlari, turmush tarzi bilan bevosita bog'liq. Agar chin ma'nodaga islohotlarni amalga oshirishni maqsad qilib olgan va ana shu islohotlar uchun o'zini burchli deb bilgan siyosat mavjud bo'lsa, eng avvalo, islohotlarni amalga oshiradigan, uning muvaffaqiyatini ta'minlaydigan inson ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarini hisobga olmogi kerak. CHindan ham, islohotlar inson ongi va qalbi orqali o'tkazilsagina, bevosita har bir odamning ma'naviy-moddiy ehtiyoji darajasiga

ko'tarilsagina ma'lum bir samara berishi mumkin. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar' ayni ana shu jihati bilan boshqa yosh mustaqil davlatlardagidan keskin farq qiladi. Bugun jahon hamjamiyatida "o'zbek modeli" deb tan olingan tub yangilanishlarning O'zbyokiston tajribasi haqiqatdan xam o'zining nafaqat siyosiy, balki ma'naviy va madaniy jihatlari, qolaversa, har bir fuqaro kayfiyati, xatti harakati, voqea-xrdisalarga munosabati, fe'l-atvori, bir so'z bilan aytganda, ruhiy olami xisobg'a olinganligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosli isloqotlarning asosi, tag-zaminining mustahkamligi ana shunda. IIquning uchun ham uni xalq qo'llab-quvvatlaydi, himoya kiladi, asraydi, SHuning uchun ham davlat siyosati bilan xalq qarashlari, jamiyatda mavjud siyosiy g'oyalar bilan fuqarolar orzu-istaklari uyg'unlashib ketgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida o'z taraqqiyot yo'limizni tanlab olishimizda juda ko'p xorijiy siyosiy arboblal maslahatlar berdilar. Ular o'z tarakqiyot yo'llarini, isloxotlarni amalga oshirish shakl va uslublarini zo'r berib tiqishtirish uchun harakat ham qildilar. Biroq O'zbekiston hukumati, bosh islohotchilik vazifasini zimmasiga olgan davlat qaysidir mamlakatning "hayot sinovidan o'tgan"? taraqqiyot yo'lini belgilab bergan bunday shakl va usullardan voz kechdi. O'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlab olishga kirishdi, Ayni ana shu - o'z yo'liga qatiylik, o'zgalarga ergashmaslik, tayyor andozalarga uchmaslik fe'l - atvori O'zbekistondagi islohotlarning ma'naviy asosi bo'lib xizmat qildi. Zotan, ana shu o'ziga xoslik, milliy qiefa va milliy tafakkurga sodikdik qoidasi o'zbek islohotchilik fenomenini keltirib chikardi.

Nima uchun O'zbekiston jahon mamlakatlarida vujudga kelgan rivojlanishning sinalgan modellarini kabul qilmadi? Buning o'ziga xos sabablari bor. Jumladan, qar qanday mamlakatning tarixi, ap'analari va ana shularning egasi sanalmish xalqning hayotga o'z munosabati bo'ladi. To'g'ri, mustaqillikning dastlabki kunlarida bizga o'z tajribalarini tavsiya ettan To'rkiya, Xitoy, YAponiya, Koreya va boshqa bir qator mamlakatlar ayni g'oyalari bilan o'zlarida ma'lum darajada muvaffaqiyatga erishganlar. Biroq ular ayni shunday andozani o'zga bir xalk - boshqacha tafakkur va boshkdcha turmush tarziga ega bo'lgan odamlar hayotiga singdirish tahdikali - hodisa ekanligani tushunmadilar. Masalaning bu jihatiga alohida e'tibor bergan Uzbekistan rahbari biz dunyo tajribasini o'rganamiz, taraqqiyot yo'liga chiqib olgan mamlakatlar tajribalariga tayanamiz, biroq xalqimizning asrlar mobaynida shakllangan ma'naviy - ruhiy ehtiyojlarini hisobga olib, ularga tayanib, shular asosida o'z taraqqiyot yo'limizni tanlab olamiz, deganida hakdi edi. Ayni mana shu g'oya bizning keng miqyosli, ko'p qirrali butun islohotlarimizning mohiyatini belgilaydigan muhim asos bo'lib xizmat qildi.

O'zbekistondagi islohotlarning yutug'i shundaki, ular eng avvalo jahon davlatchiligi ilg'or tajribalari bilan qariyb uch ming yillik davlatchilik tarixiga ega bo'lgan xalqimizning boy merosi uyg'unlashtirilgan holda, sintezlashgan tarzda olib boriladi. Dunyoviy, ma'naviy va iqtisodiy jihatdan baquvvat davlat qurishning bunday tajribasi faqat O'zbekistonda vujudga keldi. Jamiyatni bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish paytida xalqning asrlar mobaynida shakllangan turmush tarzi, an'analari, dunyoqarashi, hayotiy ehtiyojlari inobatga olindi. SHuning uchun ham mamlakatda iqtisodiy bo'hronlar va siyosiy po'rtanalar kuchaygan, hissiyotlar junbishga kelgan paytlarda ham barqarorlikka putur etmadi. Bosh islohotchi vazifasini bajarayotgan davlat xalqning kundalik ehtiyojidan tashqari, uning ruhiy-ma'naviy ehtiyojlarini ham puxta o'rgandi, ularni e'tibordan chetga surmadi.

Agar inson o'ziga ilk bolaligidanoq singdirib borilgan xdyotiy qoida va mezonlarga ega bo'lmasa, o'z-o'zini hech qachon anglay olmaydi. Bu - yaxshi, bu - yomon, chiroyli-xunuk, aqlli-beaql, tartibli-tartibsiz degan oddiy tushunchalarni . ham aytib berolmasligi tabiiy. Balki u yoshligida eshitgan, oilasidagi qaysidir yo'l-yo'riklarni nasihatlarini qalbiga jo qilib kamol topib borgandagina ota-onaning orzu-umidlarini, Vatan istagini ro'yobga olishga qodir shaxs bo'lib voyaga etadi. Bu hakda xam yurtboshimiz "O'zbekistonning o'z istiqlol va tarakqiyot yo'li" asarida batafsil to'xtalib o'tadi va shubhasiz, oila va jamiyat hamkorligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lidagi ma'lum bir yo'nalish deb belgilaydi: "Oila - jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni qam katta bir oila, deb tushunish mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va kadriyatlarini shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining shaxsiy farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining, qarindosh-urug'larining va yaqin odamlarining, ko'shnilarining eson-omonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishni birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliy darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir". 1998 yilning "Oila", 1999 yilning "Ayollar", 2000 yilning «Sog'lom avlod», 2001 yilning «Onalar va bolalar» , 2014 yilni "Sog'lom bola", 2016 yilni "Sog'lom ona va bola" yili deb e'lon qilinishida ham o'ziga xos ma'no va mazmun mujassam. Zero, Prezident Islom Karimov Uzbekistan Respublikasi Konstitutsiyasining 23 yilligiga bag'ishlangan majlisdagi tabrik so'zida ifoda etganidek, "Biz avvalambor, o'sayotgan farzandlarimiz, mana shu voyaga etayotgan bolalarimiz orqali ertangi kunimiznn ko'z oldimizga keltirishimiz kerak. Kundalik tashvish, har gal arzimaydigan tortishuv, eskidan qolgan intilishlar, nosog'lom gerdayishlar orqasidan bir narsaga z'tibor bermaymizki, kundalik hayotimiz tashvishlari ertangi kunimizga soya solmasligi, bекitmasligi kerak".Aslida ham SHarkda oila qadim-qadimdan muqaddas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlilikka erishiladi, Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi.

Milliy mafkura shakllanishining asosiy tamoyillari xususida so'z borarkan, bu o'rinda ilm-ma'rifatning beqiyos aqamiyati borasida to'xtalmoq ahamiyatga molikdir, Mafkura ma'rifatsiz shakllanmaydi, o'qimishlilik evazigagina milliy ildizlar, qadriyatlar, Vatan bilan faxrlanish tuyg'ulari salohiyatga ega bo'ladi, SHu jihatdan qaraganda, bosib o'tilgan tarixiy yo'lni odilona va oqilona baholash, mustaqillik kun tartibidan o'rin olgan masalalarni to'g'ri hal qilish, kelajak uchun ishonchli zamin yaratish va xalqning milliy o'zligini anglashi mumkin bo'ladi.

Ma'rifat sohasida bir xillilik joriy kilingan sobiq sovet davrida jamiyatning barcha a'zolarini umumiy qolipga solib ta'lim va tarbiya berish raem bo'lgan edi. Bu bilan inson shaxeining fe'l-atvor, e'tiqod va dunyoqarash jihatdan bir-biridan farklanishi, SHarq falsafasining o'ziga xosligi, SHarq mutafakkirlarining ilg'or qarashlari va buyuk ijtimoiy kudrati, islom dinining ma'naviy-axdoqiy kuchi va insonnarvarlik g'oyalari inkor etildi, xususan, uzbek xalqining tarixiy an'analari, milliy turmush tarzi, odob o'lchamlari ham oyoq osti qilindi. Natijada, sho'ro ta'lim-tarbiya tizimi, aksariyat, kutilgan maqsadlarga

olib kelmadi. olib kela olmasdi xam. Milliy mafkurasini yaratish - jamiyat a'zolarining, xususan, ilm axlining faol qatnashishi shart bulgan jarayondir.

Zero, bugungi kunda mustaqillik siyosati unutilgan milliy-madaniy qadriyatlarimizni tiklashga karatilgan ekan, mehnatkashlarning ongli qatlami bo'lgan ziyolilar xalqimiz tafakkuri ularning dunyoqarashini yangilash, o'zligini anglab, milliy-madaniy merosga befarq munosabatda bo'lmashliklari uchun olamni anptash ilmi, tafakkur ilmi-falsafasining yanada rivoj topishiga keng yo'l ochilmog'i lozim. Insonning, xalqimiz va millatimizning kamol topishi - butun ijtimoiy taraqqiyotimizning asosiy maqsadi, boshqa hamma narsalar, jumladan, mustaqillik ham ushbu o'zanlarda vositadan boshqa narsa emasligini chuqur anglay olish ayni muddaodir. Ma'lumki, baliqning suvsiz yashashi mumkin bo'lmaganidek, inson ham, uning borligining birdan-bir sharti hamda shakli - jamiyatdan tashqarnda paydo bo'lmaydi. Demak, insonning inson sifatida shakllanishi, o'zini namoyon qilishi uchun jamiyat o'zining barcha jabhalarida insoniylashmog'i lozim, Milliy g'urur, milliy or-nomus, milliy hissiyot, milliy tuyg'u millatning eng muhim jihatlaridan hisoblanadi. Biroq, bu milliy maxdudlikka olib kelmasligi, bularning barchasining ibtidosida esa inson akdu odobi, xulqi turishi lozim.

Bugun biz o'zligimizga, qadru qimmatimizga asoslangan shunday bir mafkura yaratmoqchimizki, bu mafkura har tomonlama shakllangan demokratik goyalar bilan sugorilgan, obod yurtning ozod mafkurasi bo'lishi shubhasiz. Biz xalq tafakkuridagi yangi fikrlar deganda quyidag'ilarni nazarda tutamiz: XXI asr arafasida turibmiz, hozir qaysi bir xalk yoki mamlakat bo'lmashin, agar ilm-fan va texnologiya sohalarini ravnaqiga diqqat qaratilmasa, mafkura borasida ham orkdda qoladi, Ma'naviyati ham ma'naviy eskirib, so'zi so'z bo'lmay qoladi, inobatga olinmaydi. Amerika, ingliz, fransuz, nemis, yapon, italyan xalkdari ilm-fan va texnologiya sohalarida shttorlik qilaetganliklari uchun ham umumjahon siyosatida etakchi ekanliklarini nazardan chetda qoldirish mumkin emas, deb o'ylaymiz, Biz xam shunday yo'l tutsak arziydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib, uning yo'lidan dadil qadamlar qo'yar ekan, o'tgan yillar umuminsoniy g'oyalar bilan sugorilgan, xalq manfaatlari ustuvor yo'nalish kasb etgan milliy mafkurasini yaratish nihoyatda dolzarbligini isbotlab berdi. Milliy mafkura mohiyatini falsafiy taxdil qilish jarayonidagi xulosalardan yana biri shuki, bugungi kunda respublikada yuzaga kelgan mavjud ijtimoiy-iktisodiy inqirozni bartaraf etish sharoitida milliy qadriyatlarni, ma'naviyat va ma'rifatnn tiklash, uni rivojlantirish va takomillashtirish har qachongidan ham muhim va dolzarbdir. Toki biz fuqarolar ongi va ularning ma'naviyatini taraqqiy ettirmas ekanmiz, mavjud inqirozdan chiqib ketish oson kechmaydi. Unutilgan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar tiklanishi kerak. Bularning barchasi faylasuflar, olimlar, jurnalistlar^ qo'yingki, xalqimizning ziyoli tabaqalari zimmasiga yangidan-yangi vazifalarni yuklaydi. Bugun biz bobolarni eslayapmiz, dunyoni oyoqqa turg'izgan ajdodlar ilmini, bu ilmning sir-sinoatlarini o'rganishga bel bog'layapmiz. Demak, o'zligimiz qaror topmokda. Har qanday maqsadga xam o'zligini anglagan xalqgina osonroq etadi. Bizning barcha' sa'yi - harakatlarimiz ana shu o'zligini angelayotgan qadimiy xalqning farovon turmushi, risoladagidek yashashi uchundir. Milliy mafkurasi ham, shubhasiz, xudsi shu maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

XULOSA

Bugun mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kishilar hayotini keskin tarzda bir o'zandan ikkinchi o'zanga burib yuborgan, hayotimiz butunlay boshqacha ture olgan va turmushimiz o'zgacha mazmun kasb etgan murakkab ruhiy-ma'naviy holatni boshdan kechiryapmiz. Yillar mobaynida qotib qolgan tushunchalarimiz o'zgarmokda va mudrab qolgan ongimiz uygonmokda.

Keyingi yillarda "mustaqillik", "istiqlol", "hurriyat" degan so'zlar jozibasi bilan birga beqiyos kudratini, buyuk o'zgartiruvchilik mo'jizasini ko'rsata boshladi. Istiqlol - dunyoqarashimizni tubdan o'zgartirib, fikrimiz, tafakkurimizni boyitmokda. U voqealar rivojini butun mohiyati bilan anglashni, dunyoga kengroq va sergakroq qarashni, bu ko'hna olamda sho'ro tuzumi-dan boshqa adolatli tuzumlar ham borligini, boshqacha yashash ham mumkin ekanligini, kommunistik mafkuradan bo'lak hayot lazzatini, inson kadru qimmatini himoya qiladigan g'oyalar ham mavjudligini ko'rsatib berdi. Zotan, istiqolning buyuk mohiyati, qadriyati ana shunda. Mustamlakachilikning kishilik tarixida anduh va kulfatlar yog'dirgan beqiyos fojiasi - uning insonni mustaqil fikrlashdek ulkan iqtidoridan mahrum etganida. Mustaqillik ana shu insoniy fojiani achchiq mazmunini ochib berdi.

Istiqlol bizga o'zligimizni anglatdi. O'zligini anglagan kishi olamning rang-barangligi bilan birga hayot mazmunini, o'zining shunchaki tiriklik va mavjudlik belgisi emas, aksincha, tabiatning betakror mo'jisasi ekanligini, shu asnoda inson qadru qimmatini tobora teranroq anglay boshlaydi. Ma'rifatga muhtojligiga, xurofot va jaholat hayot kushandasi, manqurtlik - o'zligini va olamni unutish ekanligiga tobora ko'proq ishonadi. Demak, bevosita ichki bir da'vat va ilohiy kuvvat bilan ma'naviy etuklikka, komillikka intiladi, Bu istiqolning yana bir mo'jisasi.

Milliy tiklanish, uyg'onish hodisasi juda keng, murakkab tarixiy jarayondir. U xalqimiz hayotining xamma sohalarini qamrab oladi. Iqtisodiyot, siyosiy faoliyat, ma'naviyat, ilm-fan, til, tarix, urf-odatlar, hunarmandchilik, me'morchilik, xullasi, inson kamoloti bilan bevosita daxldor barcha masalalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Milliy tiklanishga birdaniga erishib bo'lmaydi. Milliy tiklanish uzoq davom etadigan, ko'p yillarni qamrab oladigan murakkab jarayon. Biz ana shunday mashakqatli

va sharaflı jarayonni boshdan kechirmokdamiz. Butun O‘zbekiston - ulkan xonadonimiz ana shunday yangılanish va poklanish yo‘lidan bormokda, Bizning ruhiyatimiz, tuyg‘ularimiz, eng nozik hissiyotlarimiz tinikdashmokda, ravshanlashmokda, turli changu - g‘uborlardan tozalanmoqda.

Istiqlol mohiyati, uning millat va mamlakat takdirida tutgan o‘rni, ulug‘ ajdodlarimiz, boy va noyob tariximiz hamda istiqboldagi vazifalarimiz xususida gapirar ekan, Prezident Islom Karimov buni muxtasar qilib shunday tushuntiradi: " Biz uchun mustaqillik - eng avvalo o‘z taqdirimizni qulimizga olish, o‘zligimizni an-glash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mo‘‘tabar shu Vatanda, har bir xonadonda tinchlik-osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz Batanimizda adolat, insof, dinu diyonat, mehru oqibatni qaror toptirishdir. Biz uchun mustaqillik - Allohning o‘zi el-yurtimizga in‘om etgan tabiiy boyliklarga egalik qilish, xalqimnz qudrati, salohiyati, aklu zakovatiga tayanib, O‘zbekistonda yashayotgan har bir inson, har bir oila uchun munosib hayot qurish, kelajak avlodlar uchun ozod va obod Vatan qoldirishdir. Biz uchun istiklol - millatimiz, mamlakatimiening jahonda obro‘-e‘tibori, shon-shavkatini ko‘taradigan sog‘lom avlodni, har jihatdan barkamol va fidoyi o‘g‘il-qizlarni tarbiyalash, o‘larni voyaga etkazish va baxtini ko‘rishdir, har bir fuqaro uchun - milla-ti, irqi va diiyy e‘tiqodidan qat’iy nazar - erkinlik, tenglik, birodarlik, munosib sharoit yaratib berishdir."

Biz butun dunyoni yangi ko‘z bilan ko‘rish, uni yangicha tafakkur bilan idrok qilish jarayonlari bilan birga yashayapmiz. Bugun barcha yo‘qotilgan qadriyatlarni, boy berilgan madaniy va ma‘naviy boy-liklarni qaytadan to‘plash, qadimiy Turkiston an‘analarini tiklash, o‘z milliy qiyofasi bilan jahon xalqlari safidan munosib o‘rin olishdek goyat murakkab va mashaqqatli vazifalar qarshisida turibmiz. Zimmamizda yillar davomida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va kelajak oldidagi qarzdorlikning ulkan, zalvorli yuki bor. Biroq buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni qayta tiklash, o‘zligimiz, insoniy his-tuyg‘ularimizni, sha‘nimiz va oriyatimizni himoya qilishga, uni hamisha baland- tutishga imkoniyat tug‘ilganining o‘zi barcha mashaqqatlardan ko‘ra ustunrokdir. Ana shu imkoniyatning o‘ziyoq kishiga beqiyos kuch-g‘ayrat, qudrat va jur‘at baxsh etadi.

Biz mazkur kurs ishida tarixiy davr va ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti, milliy mafkuraning mohiyati, manbalari, uning ijtimoiy manbalari va tarixiy sharoitlari xususida fikr yuritdik. Ijtimoiy hayotning milliy ong va milliy mafkuraga ta’siri, uning o‘zaro bog‘likdigi, mafkura va ma‘naviyat muammolari mumkin kadar taxlil qilindn,

YUqorida bayon etilgan fikrlar asosida quyidagi xulosalarni keltirib o‘tish mumkin:

1. Milliy mafkura ilmiy-falsafiy jihatdan xar tomonlama taxlil etilib davr talabiga muntazam moslashtirib borilishi lozim.
2. Ushbu muammoni ilmiy, falsafiy va tarixiy taxlil qilish uchun etuk mutaxassislarni jalb etish maqsadga muvofikdir.
3. Milliy mafkurani targ‘ib qilish, omma ongiga singdirishda shoirlar, ezuvchilar, olimlar, ean‘atkorlar, siyosatchilar, jurnalistlar, xuquqshunoslar, faylasuflar kabi ziyoli tabaqalardan foydalanish ko‘proq samara beradi. Zotan, ezuvchilar, publitsistlar, jurnalistlarning har bir so‘zi, ta’sirchan, serma‘no asari inson ongining g‘oyat ta’sirchan va eng nozik tomonlariga daxldor bo‘lib, odamlarning kalbi va ongiga, his-tuyg‘ulariga ta’sir etib, hayotimizdagi kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga, yangi inson dunyoqarashini uning ma‘naviy hamda estetik karashlarini shakllantirishga ko‘maklashadi.

4. Milliy mafkura xalkning ijtimoiy ongini shakllantirishda etakchi vosita bo‘lib xizmat qilar ekan, davlat hokimiyati tizimida milliy mafkurasini yaratuvchi va targ‘ib qiluvchi maxsus kishilar bo‘lishi, xuddi shu yo‘nalishda maxsus tuzilmalar tashkil qilinishi maqsadga muvofiq. Zero, ma’naviyat, mafkura, bu - davlatning muhim tayanchi ekan, uning yanada mukammal bo‘lishi va, o‘z o‘rnida, xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilishi uchun mazkur soha mutasaddilarining bo‘lishi maqsadga muvofikdir.
5. Aholining asosiy qismini yoshlar tashkil etishini hisobga olib, milliy mafkurani yoshlar ongi va tafakkuriga singdirish, buning uchun har bir demografik guruhga moslashtirib, maxsus qo‘llanmalar ishlab chiqish, bogcha, maktab, o‘rta va oliy ta’lim muassasalarining o‘ziga xos bo‘lgan maxsus kurslar - o‘kuv dasturlarini kiritish lozim.
6. Madaniyat va madaniy-ma’rifiy muassasalar - kugubxona, teatr, klublar, madaniyat uylari va saroylari, istiroxat bbg‘lari, muzeylar faoliyatidan keng foydalanish, kishilar dunyokarashini boyitadigan, insonlarga ruhiy-ma’naviy oziq beradigan tadbirlar majmuini ishlab chiqish, teatr sahnalariga mazmun va mohiyati bilan mazkur muammoga kishilarni jalb qiluvchi asarlarni olib chiqish kerak bo‘ladi.
7. Adabiyot va san’at axli, ijodkorlar zimmasiga uzok, goyatda murakkab va o‘z o‘rnida, shonli tariximizning yorqin sahifalarini yorituvchi, bugungi hayot vokeligini, oliyjanob orzu umidlarimizni tarannum etuvchi, yoshlarimizga ibrat maktabi bo‘luvchi milliy, zamonaviy qahramonlar timsollarini yaratish vazifasini qo‘yish lozim,
8. Xalqimizning diniy ehtiyojlari va uning dinga bo‘lgan munosabatini hisobga olib, milliy goya va mafkuramizni, diniy qarashlar bilan uyg‘unlashtirgan holda rivojlantirish, kishilarimizda muqaddas dinimizga nisbatan sog‘lom va mo‘‘tadil munosabatni shakllantirish lozim.
9. Irodani toblab, odamni aniq maqsad bilan olg‘a intilishga undab, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan engishga o‘rgatishini hisobga olib, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, yoshlarimizni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga intilish ham mazkur muammoni hal qilishning muayyan shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2014. -32 b.
2. Karimov I. A. O‘zbekiston: milliy , iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O‘zbekistan. 1996. - 364 b.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. T. 2. - T.: O‘zbekiston, 1996. -380 b.

4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. - T.: O'zbekiston, 1996. -366 b.
5. Karimov I.A, Bunyodkorlik yo'lidan. T. 4, - T.: O'zbekiston, 1996. -349 b.
6. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T. 5. - T.: O'zbekiston, 1997. - 384 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -327 b.
8. Karimov I.A, Xavfsizlik va barqaror tarakqiyot yo'lidan. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998. - 429 b.
9. Karimov IA. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998, -686 b.
10. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan kuramiz. T. 7. - T.: O'zbekiston, - 1999. -32 b.
- 11.. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmokda. - T.: O'zbekiston, 1999. -48 b.
12. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. - T.: O'zbekiston, 1999. -32 b.
13. Karimov I.A. Milliy istiklol mafkurasi: xalq e'tikodi va kelajakka ishonchdir. - T.: Uzbekistan, 2000. -43 b.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni: "Ma'naviyat va ma'rifat-jamoatchilik markazining faoliyati samaradorligini yanada oshirish va takomillashtirish tugrisida". O'zbekiston ovozi. 1996. -11 sent.
15. Uzbekistan Respublikasi Prezidentining Farmoni: "Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashini ko'llab-quvvatlash to'g'risida". Xalq so'zi.- 1999. -4 sent.
16. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.15. – T.: O'zbekiston, 2007. – 320 b.
17. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. – 56 b.
18. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
19. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010 yil 12 noyabr.- Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 56 b.
20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2011. 80 b.
21. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi. 1992. 135 b.
22. Abilov O'.M. Milliy g'oya: ma'naviy omillar. - T.: Ma'naviyat. 1999. - 64 b.
23. Abulgoziy. SHajarai turk. - T.: CHo'lpon, 1992. -188 b.
24. Aydarbek Tulepov. ISHID fitnasi. T.: Movaraunnahr, 2015. 108 b.
25. Aydarbek Tulepov. Internetga in qurgan "o'rgimchaklar". T.: Movarounnahr, 2014. - 80 b.
26. Mamashokirov S., Tog'aeval SH. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. – T.: Ma'naviyat, 2007.–80 b.
27. CHoriev A., Mansurov A. G'oya, tarix va milliy tafakkur. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2000. – 210 b.
28. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 1996. – 234 b.
29. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. – T.:

Toshkent Islom universiteti, 2005. – 176 b.

30. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar (Oliy ta’lim muassasalari uchun tajribaviy qo‘llanma). – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 200 b.

31. Milliy istiqlol g‘oyasi. – T.: Akademiya, 2005. – 312 b.

32. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati. – T.: Akademiya, 2007. – 352 b.

33. Falsafa: qomusiy lug‘at. – T.: SHarq, 2000. – 496 b.

34. Karimov I.A. “O‘rta asrlar SHarq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojida roli va ahamiyati” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimida nutq. Xalq so‘zi, 2014 yil, 16 may

35. Saidov M. Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi // Xalq so‘zi.-2006.-7 yanvar.

36. Milliy g‘oya va mafkuraning falsafiy-huquqiy fanlar rivojida ahamiyati: Ilmiy–amaliy konferensiya materiallari. 2008 yil, 2 may. – T.: Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2008. – . 510 b.

37. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. - T.: O‘zbekiston, 2000. - 164 b.

38.. Tulenov J., G‘afurov 3. Mustaqillik va milliy tiklanish. •T.: O‘zbekiston, 1996. -253 b,

39. Tulenov J., G‘afurov 3. Falsafa. -T.: O‘qituvchi, 1997. -381 b.

40. To‘raev B.O., Ubaydullaev U.O. Milliy g‘oya va milliy mafkura: mohiyati, muammolari, istiqbollari. - T.: MXX instituti, 2000. -348 b.

41. Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: Meros, 1993. -123 b.

42. L. Erdonaliev. Terrorizmning g‘ayriinsoniy qiyofasi. “Qo‘qon sadosi” ro‘znomasi, 2015 yil 26 mart.

Internet saytlariga havolalar

1. www.ziynet.uz;

2. Uzbekistan development gateway // www.uzbekgateway.uz;

3. O‘zbekiston musulmonlari idorasining muslim.uz internet sayti

4. Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining Buxoriy. Uz internet sayti

5. Fikr. Uz internet sayti

6. Google.ru internet qidiruv xizmati